

# Ta’lim Jarayonida Innovatsion Dasturiy Ta’lim Vositalaridan Foydalanish Didaktik Imkoniyatlari Va Istiqbollari

**Barnoyeva Sevara Uchqun qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti magistri*

**Annotatsiya.** Innovatsion ta’lim texnologiyalari bo'yicha adabiyotlar, innovatsion ta’lim texnologiyalarining afzalligi va kamchiligi, ta’lim tizimida innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish bosqichlari, ularning o'qituvchi hamda o'quvchiga tegishli omillari o'rganildi va tahlil qilindi.

**Tayanch so’zlar:** Innovatsiya, Ta’lim innovatsiyalari, pedagogik tizim, Taksonomiya.

“Innovatsiya”tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o’zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsiyalarning asosiy ko’rinishlari quyidagilar sanaladi:

- ✓ yangi g’oyalar;
- ✓ tizim yoki faoliyat yo’nalishini o’zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- ✓ noan’anaviy yondashuvlar;
- ✓ odatiy bo’lmagan tashabbuslar;
- ✓ ilg’or ish uslublari.

**Ta’lim innovatsiyalari** - ta’lim sohasi yoki o’quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo’llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klub”da qo’llanilgan.

**Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:**

1. **Faoliyat yo’nalishiga ko’ra:** pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo’llaniladigan innovatsiyalar.
2. **Kiritilgan o’zgarishlarning tavsifiga ko’ra:** radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
3. **O’zgarishlarning ko’lamiga ko’ra:** tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.
4. **Kelib chiqish manbaiga ko’ra:** jamoa’t tomonidan bevosita yaratilgan yoki o’zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta’lim tizimida yoki o’quv faoliyatida innovatsiyalarni qo’llashda sarflangan mablag’ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko’zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday

yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordiyu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

### 1-jadval

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi.	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

### Ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- ✓ pedagogik tizimning o'zgarishi;
- ✓ o'quv jarayonining o'zgarishi;
- ✓ pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- ✓ o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- ✓ o'quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- ✓ pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ✓ ta'lim mazmunining yangilanishi;
- ✓ o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ✓ ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ✓ ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

**Pedagogning innovatsion faoliyati.** Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba - sinov ishlari olib borish, fan - texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

V.Slasteninning fikriga ko'ra innovatsion yondashuv:

- ✓ ijodiy faollik;
- ✓ faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- ✓ yangicha fikrlash;
- ✓ yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lishni ifodalaydi.

M.Jumaniyozovaning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilarni asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyanini yaratish qobiliyati;
- tajriba - sinov ishlarini rejalshtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi - pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlardakechadi. Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalshtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi.O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi:

1-bosqich: tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya) lardan foydalilanildi.

2-bosqich: mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi.

3-bosqich: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi.

4-bosqich: pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiysi yoki metodikasini yaratadi.

Innovatsion texnologiyalar - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam

beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy baxs-munozaralar o'tkazish, shumaterialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'psatishlariga imkoniyatlari yaratilishi, kichiq guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim - tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim vatarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mahg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalar shakillanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B. Blum bilish va emosional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomланади. (Taksonomiya - borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlaiishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham foydalanadi, jumladan;

**Bilish** - dastlabki, tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustaxkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

**Tushunish** - darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mayjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollash - tirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharxlash, oydinlashtirish.

**Qo'llash** - darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

**Tahlil** - darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

**Umumlashtirish** - darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejorashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinatsiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

**Baholash** darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma - xillagini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq, fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'sullah, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Innovatsion texnologiyalarning ko'p turl bo'lib ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq, bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faoliyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini o'qtirgan.

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy ko'rinishlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayxon Beruniy, al - Xorazmiy), ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al - Xorazmiy) va xokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga karab boradi. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqdirlash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson xissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarin tanlashjudan muximidir. O'qituvchi darsning eng boshida 4 - 5 daqqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat - e'tiborini eng avval anashu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsiljavob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashgulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti - harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish - o'rganish diqqat - e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi zamон ta'limi fakat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, shularni hosildor yerkunda va bog'roglarga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma

sohalarida judakatta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta ko'rlishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi keraq Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishdir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muxabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lmdir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik - materialistik usuli, mustqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.
2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.
3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.
4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini urganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.
5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.
7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy xodisalarning muvofiqligi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T: TDPU, 2006-yil. 120-b.
2. Bozorov.D, A.Qalandarov Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar "Durdona" nashriyoti, 2013- yil. 96-b.
3. Y.Y.Jamilov "O'quvchilarda muqobil energiyaga oid kompetensiyalarni shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalananish" O'zbekiston Respublikasi intelektual mulk agentligining mualliflik huquqi ob'ektlarini deponentlash to'g'risida guvohnoma. № 001670. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi. Toshkent. 30 oktyabr 2019 yil.
4. Golish. L.V Ta'limning faol metodlari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish. Ekspress - qo'llanma. Toshkent, 2001-yil. 66-b.
5. Y.Y.Jamilov "O'quvchilarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalananish" Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 1-son (2020-yil, fevral). Buxoro. -B. 117-119.
6. Ismatov.Q. O'qitishning interfaol texnologiyasi. Metodik qo'llanma. Namangan, 2007-yil. 25-b.
7. Sayidaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: RTM, 1999 - yil.70-b.

International Conference  
New Scientific Trends and Challenges  
<http://www.conferenceseries.info/>

---

10. Tolipov O', Usmonboyeva. M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -T. Fan, 2006 - yil. 84-b.
11. Yo'ldoshev J, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T.:Pedagog, 2004 -yil.70-b.
12. Ziyomuhhammadov B., Abdullaeva SH. Ilg'orpedagogik - texnologiyalar. -Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2001-yil. 80-b.